



# MIRKARIM OSIMNING “TO’MARIS” VA “SHIROQ” TARIXIY AFSONAVIY ASARLARIDA JASURLIK, VATANPARVARLIK VA VATANGA BO’LGAN MUHABBAT TUYG’ULARINING ULUG’LANISHI

**Mirzolimova Mushtariybonu**

*Farg’ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk adib Mirkarim Osimning “To’maris” va “Shiroq” kabi asarlarida jasurlik, vatanga bo’lgan muhabbat va uni himoya qilish yo’lida jon berishga tayyor bo’lgan ijobiy hususiyatlaritroflicha yoritiladi. Bunday asarlarning bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga ma’naviyatiga va albatta barkamol, jasur yosh avlod tarbiyalashdagi o’rni va asarlarning chuqur tahlili keng talqin qilinadi.

**Kalit so’zlar:** *Obraz, tarixiy hikoya, personajlar tasviri, vatanparvarlik, massaget, sakalar, qabila, barkamol avlod, yoshlar tarbiyasi nagal*

Mirkarim Osim O’zbek adabiyotida tarixiy syujetli asarlar yaratishni boshlar ekan, ajdodlarimiz tarixini xar tomonlama sinchiklab o’rganadi. Dengizdan gavhar izlagan g’ovvoslardek, o’tmish unnoniga shong’ib so’z durlarini teradi. Shu tariqa “To’maris” va “Shiroq” va yana shu kabi tarixiy asarlar yuzaga keladi. U asarlarda xalqimizning buyuk o’tmishidagi qahramonlarini tasvirlashga bag’ishlangan.

Tomaris asarida mardlik jasurlikda erkaklardan qolishmaydigan ayol To’marisning vataniga bo’lgan muhabbati, yurtiga qayg’urish hissi farzandinig o’limi jang tasvirlari, yovuz Kayhusrafning ayanchli o’limi juda ta’sirli yoritib beriladi.

Tariximiz buyuk va juda qadimiy voqealarga boy. Kayhusrav (Kir, Kurush)- qadimgi Eron shohi (milodddan avvalgi 558-630) Ahamoniylar davlati asoschisi. Milodddan avvalgi 530 yili o’z qo’shni bilan O’rta osiyoga hujum qilgan va massagetlar malikasi To’maris bilan bo’lgan jangda halok bo’ladi.

Biz To’maris timsolida haqiqiy mard, jasur ayol bo’lishiga qaramasdan g’oyat katta qabilaga sardorlik qiladigan, haqiqiy vatanparvar shaxs timsolini ko’rishimiz mumkin. Yana shuni takidlash kerakki To’maris halq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadi. Vaholanki shoh Kayhusrav To’marisga turmush qurish taklifini beradi To’maris esa albatta uni rad etadi. Xalqini, uning ozodligini o’ylaydi. U o’zi uchun yashashi shoxona hayot kechirishi, hayotini zebu ziynatlar ichida o’tkazishi mumkin edi. Lekin u Kayhusravning boyliklariga ega bo’lish niyatini payqaydi. Tomarisning ona yurtiga mehribonligi, xalqiga qayg’urishi kabi tuyg’ularini ko’rishimiz mumkin. Asarda jang maydoni va jang tasvirlari juda jonli tasvirlanadi. Sparangiz va uning do’stlarining Kayhusravga qarshi mardona kurashlari, asirga tushib Sparangizning mardlarcha o’limi adib tomonidan ajoyib mahorat bilan



tasvirlanadi. Farzandini o'limini eshitgan onaning jigar bag'ri o'qdek teshildi. Qayg'uning davosi faqatgina o'ch olish edi. Shunday ham bo'ldi, To'maris va Kayhusrav o'rtasidagi jang ayovsiz va shiddatli bo'lib o'tdi. To'maris g'alaba qozondi va asar hotimasida Kayhusravning uzilgan boshini qon to'ldirilgan idishga solib:

Tiriklikda to'ymovding sira qon yoshga  
Mana endi to'yib ol boshing ko'mib ich  
misralarini takidlaydi.

Mirkarim Osim To'maris asarida barcha personajlarni o'ziga hos tarzida tasvirlaydi. Bunda shak (sak)larning urf odatlari vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va hattoki mayda personajlarni ham mahorat bilan ochib berganligi asarni o'qimishli qilgan.

<sup>1</sup> Shaklar (sak)lar miloddan avvalgi birinchi ming yillik va milod boshlarida O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkiston Shimoliy sharqiy rayonlarida yashab chorvachilik, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan qabiladir.

“Shiroq” tarixiy hikoyasi ham Turon xalqlarining Ahamoniylar podshohi Doro 1 bosqiniga qarshi kurashgan mard, vatanining jasur o'g'loni chopon yigit Shiroqning jasorati haqida so'z yuritiladi. Shiroq halqining mard o'g'loni bo'lib, umrini xalq ozodligi yo'lida qurbon qiladi. U har bir yurt farzandi uchun o'rnak bo'ladigan timsoldir.

### **Xulosa**

Mirkarim Osimning har ikkala tarixiy asarlari ham bugungi davrda barkamol, jasur va mard avlodlar tarbiyalashda juda muhim vosita deb o'ylayman.

Inson o'z yurtini sevishi, uning taraqqiyori, tinchligi va mustaqilligi rivojlanishi uchun sadoqat bilan hizmat qilishi, fidoiylilik ko'rsatishi va hatto jonini bermoqqa tayyor bo'lib yashamog'I darkor. Vatanparvarlik hissini singdirish vatan tuyg'usini anglashdan boshlanadi, odam o'z ona yurtining tashvishi, quvonchi bilan hamisha hamnafas yashashligini unib o'sib kelayotgan yosh avlodga uqtirishimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.Matjon. O'zbek bolalr adabiyoti antologiyasi-Toshkent “O'qituvchi”, 2006
2. R.Qo'chqorov, M.To'chiyeva, H.Norqulov. “Vatan tuyg'usi” fanini 6-snfda o'rganish bo'yicha o'quv metodik qo'llanma-Toshkent. “Yangi yo'l poligraf servis”, 2013
3. Turgunpo'latov, D.R (2021). O'zbek bolalr adabiyoti va Turg'unboy G'oyibov (pp.1688-1690)



4. Turg'unpo'latov, D.R 2021 bugungi yangilanayotgan ta'lim tizimida klaster tushunchasi (168)